

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA'NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

*O'ZMPU Professional ta'lim va san'at fakulteti
1-bosqich talabasi Qobiljonova Dildoraxon*

Anotatsiya: Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi, axborot xavfsizligini tadqiq etishda mafkuraviy-madaniy yondashuvlar, O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari hamda unga oid qonun hujjatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolada axborot xavfsizligining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni xorij tajribalari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot xavfsizligi, mafkuraviy-madaniy yondashuvlar, "Kiberxavfsizlik to'g'risida" qonuni, huquqiy asoslar, raqamli xavfsizlik, dezinformatsiya, axborot madaniyati, qonunchilik, media savodxonlik, axborot xurujlari.

Kirish:

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu borada huquqiy va texnik asoslarni mustahkamlashga qaratilgan qator choralar ko'rilgan.

Asosiy yo'nalishlar va tashabbuslar:

- **Strategiya va Qonunchilik:** 2026–2030-yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikni rivojlantirish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yangi davlat strategiyasi tasdiqlangan. Shuningdek, kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunlar imzolangan.
- **Maxsus Tuzilmalar:** 2026-yil 1-apreldan boshlab Adliya vazirligi, Energetika vazirligi va Soliq qo'mitasida maxsus kiberxavfsizlik bo'linmalari tashkil etilishi belgilangan. Mudofaa vazirligida esa Axborot xavfsizligi monitoring markazi, kiberxavfsizlik laboratoriyasi va sun'iy intellekt texnologiyalari boshqarmasi faoliyati yo'lga qo'yilgan.
- **Kiberxavfsizlik Markazi:** Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) tomonidan maxsus elektron platforma ishlab chiqilgan bo'lib, unda milliy axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash va zaifliklarni aniqlash bo'yicha tanlovlar o'tkaziladi.
- **Raqamlashtirish va Himoya:** Barcha davlat axborot tizimlari yagona elektron hukumat platformasi orqali ishlashi, axborot xavfsizligi auditi majburiy bo'lishi ta'kidlangan.
- **Kadrlar tayyorlash:** Kiberxavfsizlik bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, bank va ichki ishlar xodimlari malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

- Mudofaa xavfsizligi: Harbiylar uchun axborot tizimlari (masalan, "Call-up" elektron tizimi) ishlab chiqilgan va xavfsiz ma'lumotlar almashinuvi kanallari modernizatsiya qilingan.

Maqsad: Ushbu choralar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat va tijorat axborot tizimlarini kiber-tahdidlardan himoya qilish, fuqarolarning ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash hamda mamlakatning kiber-mudofaa salohiyatini oshirishga qaratilgan.[1]

Hozirgi globallashuv davrida axborot xavfsizligi har bir shaxs uchun o'rganish zarur bo'lgan eng dolzarb o'rganish obekti hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Axborot xavfsizligi – bu axborotni ruhsatsiz kirish, oshkor qilish, foydalanish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilish tizimidir.

Axborot xavfsizligi – axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi.

Axborot xavfsizligi – inson huquqlari va davlat manfaatlarini himoya qilish uchun axborotni ruhsatsiz foydalanishdan yoki buzg'unchilikdan himoya qilish jarayoni.

Axborot xavfsizligini tadqiq etishda quyidagi yondashuvlar mavjud:

- Texnik-texnologik yondashuv;
- Mafkuraviy-madaniy [2]

Axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning bir qismi hisoblanadi. Milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi.

Axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin. Inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish – bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari, shu bilan birga, jami xavfsizlik sohalaridagi xavfsizlik obyektlarining asosiy elementlaridir. [3]

Asosiy qism: Mamlakatimiz milliy iqtisodining hech bir tarmog'i samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari har bir davlatning iqtisodiy va harbiy salohiyatini tashkil qiluvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi.

Bunday jamiyatda axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot-kommunikatsiyalarni qo'llash kengayadi. Turli xildagi axborot xududiy joylashishidan

qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga internet xalqaro kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi.

Axborotlashgan jamiyat ushbu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborot dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi prioritet masalalariga aylanmoqda. Hozirgi kunda xavfsizlikning bir qancha yo'nalishlarini qayd etish mumkin. Axborotning muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum.

Shuning uchun ham qadimda chegarasida axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri -sirli yozuvdir. Bunda xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at-sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha asrlar osha o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar.

Bulardan tashqari uni o'g'irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi.[4]

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborot o'zining hayotiy davriga ega bo'ladi. Bu davr uni yaratish, undan foydalanish va kerak bo'lmaganda yo'qotishdan iboratdir. Axborot hayotiy davrining har bir bosqichida ularning himoyalanganlik darajasi turlicha baholanadi. Axborotning hayotiy davri maxfiy va qimmatbaho axborotga ruxsatsiz kirishdan himoyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Kompyuter egalari va foydalanuvchilarning mulkiy huquqlarini himoyalash-bu ishlab chiqarilayotgan axborotni jiddiy iqtisodiy va boshqa moddiy hamda nomoddiy zararlar keltirishi mumkin bo'lgan turli kirishlar va o'g'irlashlardan himoyalashdir. Axborot xavfsizligi deb ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yunaltilgan tabiiy yoki sun'iy xossalari tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. [5]

Ilgarigi xavf faqatgina konfidentsial (maxfiy) xabarlar va hujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat

oAxborotning himoyasi deb boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiylikni ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi. Axborotning egasiga, foydalanuvchisiga va boshqa shaxsga zarar yetkazmoqchi bo'lgan nohuquqiy muomaladan har qanday hujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot himoyalaniishi kerak.

Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan axborotni quyidagicha turkumlash mumkin:

- **maxfiylik**-aniq bir axborotga faqat tegishli shaxslar doirasigina kirishi mumkinligi ya'ni foydalanilishi qonuniy hujjatlarga muvofiq cheklab qo'yilib, hujjatlashtirilganligi kafolati. Bu bandning buzilishi o'g'irlik yoki axborotni oshkor qilish deyiladi;
- **konfidentsial yaxlitlik**-axborot boshlang'ich ko'rinishda ekanligi, ya'ni uni saqlash va uzatishda ruxsat etilmagan o'zgarishlar qilinmaganligi kafolati. Bu bandning buzilishi axborotni soxtalashtirish deyiladi;
- **autentifikatsiya**-axborot zaxirasi egasi deb e'lon qilingan shaxs haqiqatan ham axborotning egasi ekanligiga beriladigan kafolat. Bu bandning buzilishi xabar muallifini soxtalashtirish deyiladi;
- **apellyatsiya qilishlik**-yetarlicha murakkab kategoriya, lekin elektron biznesda keng ko'llaniladi. Kerak bo'lganda xabarning muallifi kimligini isbotlash mumkinligi kafolati. Yuqoridagidek, axborot tizimiga nisbatan quyidagacha tasnifni keltirish mumkin:
- **Ishonchlilik**-tizim me'yoriy va g'ayri tabiiy hollarda rejalashtiriganidek o'zini tutishlik kafolati;
- **aniqlilik**-hamma buyruqlarni aniq va to'liq bajarish kafolati; tizimga kirishni nazorat qilish - turli shaxs guruhlari axborot manbalariga har xil kirishga egaligi bajarilishlik kafolati; va bunday kirishga cheklashlar doim nazorat qilinishi-istalgan paytda dastur majmuasining xohlagan qismini to'liq tekshirish mumkinligi kafolati; identifikatsiyalashni nazorat qilish-hozir tizimga ulangan mijoz aniq o'zini kim deb atagan bo'lsa, aniq o'sha ekanligining kafolati.

Bu borada yurtimizda qator Qonun va qarorlar bilan qonunan himoyalanganmiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida"gi Qonuni kabi O‘zbekiston Respublikasi qonun, qaror va ijrolari orqali bizning huquqlarimiz himoyasi kafolatlangan. [6]

Axborotni himoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Axborotning kelishuvsiz chiqib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, o‘zgartirilishi, soxtalashtirilishlarning oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bo‘lgan xavf-xatarning oldini olish;
- axborotni yo‘q qilish, o‘zgartirish, soxtalashtirish, nusxa ko‘chirish, to‘siqlash bo‘yicha ruxsat etilmagan harakatlarning oldini olish;
- xujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga aralashuvlarning ko‘rinishlarining oldini olish; har qanday noqonuniy
- axborot tizimida mavjud bo‘lgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiylikini va konfidentsialligini saqlovchi xuquqlarini himoyalash;
- fuqarolarning konstitutsion davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlashlik-ishonchliligi, tarqatilishi mumkin emasligi, maxfiylik kafolatilmasdan foydalanishdir. Bulardan tashqari, bu harakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi.[7]

Ilmiy va amaliy tekshirishlar natijalarini umumlashtirish natijasida axborotga nisbatan xavf-xatarni quyidagicha tasniflash mumkin. Xavfsizlik siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri himoya tizimida potentsiaxavfli joylarni topish va ularni bartaraf etish hisoblanadi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, tarmoqdagi eng katta xavflar -bu ruxsatsiz kirishga mo‘ljallangan maxsus dasturlar, kompyuter viruslari va dasturning ichiga joylashtirilgan maxsus kodlar bo‘lib, ular kompyuter tarmoqlarining barcha ob'ektlari uchun katta xavf tug‘diradi. [8]

Xulosa:

Zamonaviy axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining yutuqlari himoya uslublarining bir qator zaruriy instrumental vositalarini yaratish imkonini berdi. Axborotni himoyalovchi instrumental vositalar deganda dasturlash, dasturiy-apparatli va apparatli vositalar tushuniladi.

Ularning funksional to‘ldirilishi xavfsizlik xizmatlari oldiga qo‘yilgan axborotlarni himoyalash masalalarini yechishda samaralidir. Hozirgi globallashtirish davrida tarmoq xavfsizligini nazorat qilish texnik vositalarining juda keng spektri ishlab chiqarilgan. Axborotni himoyalash tizimlari, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ommaviy ravishda qog‘ozsiz avtomatlashtirilgan asosda boshqarilishi sababli axborot xavfsizligini ta'minlash murakkablashib va muhimlashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari to‘g‘risida"gi Qonuni. (2022). Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida"gi Qonuni. (2019). Toshkent.
4. Xalqaro axborot xavfsizligi tashkiloti. (2023). Axborot xurujlari va ularning oldini olish strategiyalari. Toshkent.
5. Qosimov, B. (2022). Raqamli muhitda axborot xavfsizligi va uning huquqiy asoslari. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida"gi Qonuni. (2020). Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). O‘zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligi strategiyasi. Toshkent.
8. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford: Oxford University Pres